

## REPOST.UZ INTERNET NASHRIDA INFOGRAFIKANING QO'LLANILISHI

**Aygul Jienbaeva**  
*O'zJOKU xalqaro jurnalistika yo'nalishi  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Repost.uz axborot portali va unda e'lon qilingan data materiallar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, internet nashrda e'lon qilingan bir necha data materiallar va infografikalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Data, infografika, sayt, diagramma, statistika, Repost.uz.

Repost.uz-o'zbek mediasida yangiliklarni taqdim etishda boshqa saytlardan ajralib turadi. Uning yutuqli tomonlaridan biri esa ma'lumotlarni qisqa va aniq tarzda yetkazishidadir.

“Bir vaqtlar biz qisqa va soddalashtirilgan taqdimot foydasiga uzun sarlavhalar va matnlardan voz kechgan edik. O'ylaymanki, shuning uchun tomoshabinlar bizga oshiq bo'lishdi. Biz boshqa ommaviy axborot vositalari bilan raqobatlashish uchun o'zimizga reja qo'ymadik, lekin biz yangiliklarni eng erkin shaklda etkazishni birinchi o'ringa qo'ydik. Yangilikni o'qiganingizda, ular shunchaki bir piyola choy ustida sizga aytib berishayotganini his qildingiz. O'quvchilarga bu yoqdi va ular bizga ishonishdi”, — deydi Repost.uz asoschilaridan biri Timur Abdulin.<sup>19</sup>

Nashr 2017-yil 2-iyulda “O'zbekistondan shoshilinch xabarlar” shiori ostida ochilgan. Avvallari xabarlar o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan bo'lsa, hozir faqat rus tilida yuritiladi. 2021-yildan boshlab nashr portalga aylanib, tor yo'naltirilgan bo'limlar ochilganini e'lon qiladi: Avto Repost, Repost Lifestyle, Repost Health va Repost Sport. Lekin hozirda faqat ikkita bo'lim faoliyati davom ettirilmoqda.

Avto Repost- ushbu yo'nalishda ham jahon va O'zbekistondagi avtomobillar haqida ma'lumotlar beriladi. Lifestyle bo'limida bo'lsa ko'ngil ochar mazmundagi

<sup>19</sup> Когда вы читаете новость, складывалось ощущение, что вам ее просто пересказывают за чашкой чая. -

URL: <https://www.nur.kz/technologies/business/2019397-novyy-stil-i-skorost-raboty-kak-repostuz-za-pyat-let-vyroslo-v-odno-iz-samyh-uznavaemyh-russkoyazychnyh-smi-uzbekistana/> (murojaat sanasi: 06.05.2023)

xabarlar tayyorlanadi. Shuningdek, saytda kunlik O‘zbekiston va jahon xabarlari taqdim etiladi.

Nashrning boshqa saytlardan yana bir ustunlik tomoni data jurnalistik materiallarning tayyorlanishidadir. Ya’ni ko‘pchilik OAVlar biron bir xabarni matn ko‘rishida bersa, Repost.uz infografikadan foydalangan holda berishga harakat qiladi. Chunki hozir axborotni vizualizatsiya qilish zamonaviy ommaviy axborot vositalarining rivojlanishidagi eng aniq tendensiyalardan biridir.

Infografika — axborotni taqdim etishning grafik usulidir. Boshqacha qilib aytganda, buni rasm ko‘rinishidagi ma’lumotlar desak ham bo‘ladi. Infografika boshqa elementlarni (matn, ko‘rsatkichlar, diagrammalar, bloklar va ikonlar) o‘z ichiga olishi mumkin, unda grafik tasvirlar asosiy rol o‘ynaydi.<sup>20</sup>

2022-yilning sentyabr oyida “De Facto” agentligi va Muna Media reklama agentligi tomonidan poytaxt aholisining 18 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari o‘rtasida so‘rovnama o‘tkaziladi. Unining natijalariga ko‘ra esa Repost.uz O‘zbekistondagi eng ko‘p o‘qiladigan rus tilidagi axborot vositalari toifasida yetakchi deb e’lon qilinadi.<sup>21</sup>

Sayt yangiliklarni auditoriyaga taqdim etishda konvergensiya uslubida foydalaniadi. Ya’ni saytda xabarlardan audio va Tv formatda ham boxabar bo‘lishingiz mumkin.

E’tibor beradigan yana bir narsa sayt o‘zining olti yilligi munosabati bilan cheklangan nashriyot gazetasini chiqarganlidigidir. Unda nashrning ilk qadamlari va yirik media-portalga aylanishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Axborot portalida e’lon qilingan yangiliklarni ko‘zdan kechirish davomida esa infografikadan foydalangan holatlar ko‘pligi aniqladik. Nashrda ilk infografika 2017-

<sup>20</sup> Nazarov.G. Infografika nima? Infografika yaratish uchun kerakli maslahat va 5 ta onlayn xizmat.- URL: <https://medium.com/@gulomnazarov/infografika-nima-infografika-yaratish-uchun-kerakli-maslahat-va-5-ta-onlayn-xizmat-a280a1eb602a#:~:text=Infografika%20%E2%80%94%20axborotni%20taqdim%20etishning,grafik%20tasvirlar%20asosiy%20rol%20o%CA%BBynaydi>. (murojaat sanasi:07.05.2020).

<sup>21</sup> Repost анонсирует Repost TV: первый в локальных СМИ формат видео-репортажей и трансляций, снятых вертикально.-URL: <https://repost.uz/repost-tv> (murojaat sanasi: 17.10.2022).

yili 8 yil davomida Green Cardda qancha O‘zbekiston fuqarolari qatnashgani ma’lum bo‘ldi<sup>22</sup> sarlavha bilan e’lon qilingan. Shundan 2022-yilgacha muntazam ravishda yangiliklarni taqdim etishda infografikadan qo‘llanilgan.Keling ulardan bir nechtasini tahlil qilsak.

O‘zbekistonda Odnoklassnikidan kim, qanday va nima uchun foydalanadi? <sup>23</sup>nomli 2018-yilda e’lon qilingan materialni olib qarasak. Materialda dastlab odnoklassnikining MDH davlatlari orasidagi o‘rni va odamlar undan aynan nima maqsadlarda qo‘llanishi haqida ma’lumotlar beriladi.Undan so‘ng esa infografikani 5 qismga bo‘lgan holda ushbu platformadan odamlar qaysi yosh oralig‘ida ko‘p foydalanishi, qanday telefondan va qaysi tildan foydalanishi haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, auditoriyaning qancha muddatda ushbu dasturdan foydalanishi va ular Odnolassnikida qiziqib tomosha qiladigan 5ta sohani ajratib ko‘rsatadi. Diagramma olti yil avval yaratilgan bo‘lsa da, juda ham qiziqarli va e’tiborni tortadigan qilib tayyorlangan.

Birinchidan, ranglar saytni asosiy ranglari bo‘lgan qora va oq ranglar bilan chambarchas bog‘liq.

Ikkinchidan, infografikada har bir sohaga oid kerakli rasmlar tanlab olingan. “Dunyo bo‘ylab odamlar qanday sabablarga ko‘ra o‘lishadi?”<sup>24</sup> sarlavhali maqolada esa , dunyoda odamlar bir kunda aynan qaysi kasallikkardan vafot etayotganligi ham tushuntirilgan.

---


<sup>22</sup> Стало известно, сколько узбекистанцев участвовали в Green Card за 8 лет - URL: <https://t.me/RepostUZ/1455> (murojaat sanasi:02.11.2017).

<sup>23</sup> Кто, как и для чего пользуется Одноклассниками в Узбекистане? (инфографика).-URL: [Кто, как и для чего пользуется Одноклассниками в Узбекистане? \(инфографика\) \(repost.uz\)](https://repost.uz/infografika-kto-kak-i-dlya-chego-polzuetsya-odnoklassnikami-v-uzbekistane-infografika-repost.uz) (murojaat sanasi:24.04.2018)

<sup>24</sup> По каким причинам умирают люди по всему миру. -URL: <https://t.me/RepostUZ/13798> (murojaat sanasi:19.03.2020)

## Re:post

По каким причинам умирают люди по всему миру? (в день)



Источник: Всемирная организация здравоохранения | gisanddata.maps.arcgis.com


Bunda birinchi ko‘zga tashlanadigan narsa tanlangan ranglarning rang-barangligidadir. Ya’ni bunda nashr har bir keltirilgan kasallikni alohida ranglar bilan ajratib ko‘rsatgan. Diagrammaning esa Bar chart uslubidan foydalangan.

6 yillik ta’lim va eng kam ish haqi. Nega O‘zbekistonda shifokor bo‘lish foydali emas?<sup>25</sup> sarlavhali maqola esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mamlakatdagi ishchilar eng kam ish haqi oladigan ikki sohadan biri ekanligini aniqlagan.

O‘sha vaqtida tibbiyot xodimlarining o‘rtacha ish haqi 1 million 883 ming so‘mni tashkil etib, respublika bo‘yicha o‘rtacha ish haqiga nisbatan 32,2 foizga kamdir. Shuningdek, boshqa hududlarda ham ushbu soha vakillari kam oylik olishi aniqlangan.

<sup>25</sup> 6 лет обучения и самая низкая зарплата. Почему быть врачом в Узбекистане не выгодно?-URL: [6 лет обучения и самая низкая зарплата. Почему быть врачом в Узбекистане не выгодно? \(repost.uz\)](http://6 лет обучения и самая низкая зарплата. Почему быть врачом в Узбекистане не выгодно? (repost.uz)) (murojaat sanasi:15.04.2021).


## Средняя зарплата медработников в сравнении со средней зарплатой в регионе в процентах



Ushbu diagramma orqali soha bo'yicha eng kam va ko'p oylik qaysi hududlarda olganligi ko'rsatilgan. Shuningdek nashr ushbu ma'lumotlar haqiqiyligini inobatga olgan holda "O'zbekiston shifokorlari" Telegram-kanalida o'zbekistonlik shifokorlarning maoshi bilan bog'liq muammolar tez-tez tilga olinishini aytib o'tadi. Internetda O'zbekistonning qaysi banklari ko'p tilga olinadi – infografiqa va reytinglar<sup>26</sup> sarlavhali maqolada esa "Ledokol Group" kompaniyasining tahliliy bo'limi 2021-yilning dastlabki 4 oyi davomida O'zbekistondagi ijtimoiy tarmoqlar va internet OAVda eng ko'p muhokama qilingan banklar reytingini tayyorlagani bo'yicha ma'lumotlar beradi. Reytingni tuzish uchun O'zbekistonning 32 ta banki internet tarmog'ining o'zbek segmentida ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ommaviy axborot vositalaridagi sahifalari tahlil qilindi. Onlayn mashhurlik har bir alohida bankning

<sup>26</sup> Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг. – URL: [Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг \(repost.uz\)](http://repost.uz/Какие_банки_Узбекистана_чаще_всего_упоминаются_в_интернете_—_инфографика_и_рейтинг_(repost.uz)) (murojaat sanasi: 18.05.2021)

odamlar uchun qiziqishi va ahamiyatini, ishonch darajasini, mashhurlik va obro' darajasini ko'rsatadi.<sup>27</sup> Shundan so'ng maqolada ushbu reyting diagramma orqali ko'rsatib beriladi.



Bu davrda “Xalq bank” (1-o'rin), Milliy bank (3-o'rin), “Agrobank” (2-o'rin) va “Orient Finance Bank” (7-o'rin) kabi banklardagi qiziqish dinamikasi eng ko‘p ajralib turdi.

Undan keyingi diagrammada esa odamlarning banklar haqida telegram, ijtimoiy tarmoq va onlayn internet nashrlarning qaysi birida ko‘proq yozilishi haqida ajratilib ko'rsatiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning aynan qaysi hududida muhokama bo‘lganligi haqida so‘z yuritiladi. Umuman olganda ushbu data materialda bank sohasi bo‘yicha juda ko‘p ma’lumotlar keltiriladi va diagrammaning turli uslublaridan foydalangan holda diagrammalar yaratiladi. Shuningdek, saytda e’lon qilingan eng ko‘p infografikalar esa koronavirus mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan.

<sup>27</sup> Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг. – URL: [Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг \(repost.uz\)](http://Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг (repost.uz)) (murojaat sanasi: 18.05.2021)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Когда вы читаете новость, складывалось ощущение, что вам ее просто пересказывают за чашкой.

URL: <https://www.nur.kz/technologies/business/2019397-novyy-stil-i-skorost-raboty-kak-repostuz-za-pyat-let-vyroslo-v-odno-iz-samyh-uznavaemyh-russkoyazychnyh-smi-uzbekistana/> (murojaat sanasi:06.05.2023).

2. Nazarov.G. Infografika nima? Infografika yaratish uchun kerakli maslahat va 5 ta onlayn xizmat. –URL: <https://medium.com/@gulomnazarov/infografika-nima-infografika-yaratish-uchun-kerakli-maslahat-va-5-ta-onlayn-xizmat-a280a1eb602a#:~:text=Infografika%20%E2%80%94%20axborotni%20taqdim%20etishning,grafik%20tasvirlar%20asosiy%20rol%20o%C4%97CA%C4%9BBynaydi>. (murojaat sanasi:07.05.2020).

3. Repost анонсирует Repost TV: первый в локальных СМИ формат видеорепортажей и трансляций, снятых вертикально. –URL: <https://repost.uz/repost-tv> (murojaat sanasi: 17.10.2022).

4. Стало известно, сколько узбекистанцев участвовали в Green Card за 8 лет –URL: <https://t.me/RepostUZ/1455> (murojaat sanasi:02.11.2017).

5. Кто, как и для чего пользуется Одноклассниками в Узбекистане? (инфографика). –URL: <https://repost.uz/infografika/kto-kak-i-dlya-chego-polzuetsya-odnoklassnikami-v-uzbekistane-infografika> (repost.uz) (murojaat sanasi:24.04.2018).

6. По каким причинам умирают люди по всему миру. –URL: <https://t.me/RepostUZ/13798> (murojaat sanasi:19.03.2020).

7. 6 лет обучения и самая низкая зарплата. Почему быть врачом в Узбекистане не выгодно?. –URL: <https://repost.uz/infografika/6-leto-obucheniya-i-samaya-nizkaya-zarplata-pochemuy-byt-vrachom-v-uzbekistane-ne-vygodno> (repost.uz) (murojaat sanasi:15.04.2021).

8. Какие банки Узбекистана чаще всего упоминаются в интернете — инфографика и рейтинг. – URL: <https://repost.uz/infografika/kakie-banki-uzbekistana-chapce-vsego-upominaются-v-internete-infografika-i-reiting> (repost.uz) (murojaat sanasi: 18.05.2021).